Natijalar tahlili. Toshkent shahar 16-oilaviy poliklinikasida ro'yhatga olingan, COVID-19 infeksiyasi rekonvalesstlarining 22 nafaridan 13 nafari (59,1%)ni erkaklar, 9 nafari (40,9%)ni ayollar tashkil etdi. Bu bemorlar kasallikning o'tkir davridan keyin o'rtacha $2,8 \pm 0,7$ oyni tashkil etdi.

Kuzatuvimizdagi bemorlardan olingan material (najas) qonli agar, Saburo, tuxum sarig'i qo'shilgan tuzli agar, Endo, Vismut-sulfidli agar, Vilson-Bler, Kitto-Tarotsi, bifido va eskulin ozuqa muhitlariga ekildi.

Kuzatuvimizdagi rekonvalesstlarida indigen floralardan Bifidobacterium va normal fermentatsiyalovchi E.coli ning uchrash ko'rsatkichi yuqori (100%) bo'ldi. Lactobacillus 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan rekonvalesstlarda 54,5% hollarda aniqlangan bo'lsa, 30 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan rekonvalesstlarda 45,4% ni tashkil qildi. Peptostreptokokklar esa 18-30 yoshgacha rekonvalesstlarda 58,4% hollarda uchrasa, 30 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan rekonvalesstlarda bu ko'rsatkich 38,3%ni tashkil qildi. Shunday holat laktoza negativ E.coli L (-), Streptococcus (D) va Proteus sp. larga ham taalluqli bo'ldi. Har ikkala yosh guruhlarida ham shartli patogen bakteriyalardan S.aureus, E.coli gem+, Streptococcus (A) topilmadi.

Xulosa. Shunday qilib, 18-30 yoshgacha bo'lgan rekonvalesstlarda 30-60 yoshgacha bo'lgan rekonvalesstlarga nisbatan Lactobacillus (54,5%/45,4%, $P < 0,05$) va Peptostreptokokklar (58,4%/38,3%) 1,5 barobarga kamaygan.

YUQORI NAFAS YO'LLARI KASALLANGAN BEMORLARDAN AJRATIB OLINGAN PATOGEN STAFILOKOKKLARNI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Murodova I. A.

Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy tadqiqot instituti

Dolzarbli. Stafilokokklar kasalxona ichi infeksiyalarining asosiy etiologik qo'zg'atuvchilari tarkibida eng keng tarqalgan patogenlardan biridir. Metitsilliga rezistent stafilokokk aureus

(MRSA) zamonaviy antibiotiklarning asosiy guruhlariga chidamliligi bilan ajralib turadi va Jahon Sogʻliqni Saqlash tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, inson salomatligiga tahdid sifatida yuqori ustuvorlikka ega. Nozokominal sharoitda MRSA-infeksiyalari asosan reanimatsiyalarda, intensiv terapiya boʻlimlarida, kuyish va jarroxlilik boʻlimlarida qayd etiladi. (Alipov V.V., Avanesyan G.A., Musaelyan A.G., Alipov A.I., Mustafaeva D.R. *Sovremennye problemy modelirovaniya i lecheniya absessov myagkix tkaney.*-2020 g; Alos, J.I. *Antibiotic resistance: A global crisis* / J.I. Alos // *Enferm Infecc Microbiol Clin.* - 2015.g.; Charan, D. *Study of Antibiotic Resistance Pattern in Methicillin Resistant Staphylococcus aureus with Special Reference to Newer Antibiotic* - 2015.)

Tadqiqot maqsadi MRSA tomonidan qoʻzgʻatilgan qon oqimi infeksiyalarining 6-yillik kuzatuvlari shuni koʻrsatdiki, ularning uchrash darajasi nozokomial infeksiyalarda barqaror edi, ammo kasalxona tashqi infeksiyalar bakteremiya bilan keskin oshdi (24% dan 49% gacha) bu mualliflarning fikriga koʻra kasalxona tashqi infeksiyalari qoʻzgʻatuvchining nozokomial shtammlarini siqib chiqargan. MRSA infeksiyalarining keskin va tez oʻsishi va buning natijasida yetkazilgan katta iqtisodiy zarar, kelajakda AQShdagi ushbu infeksiyalar kasalliklarga qarshi kurashda milliy ustuvorlik boʻlishini taxmin qilish imkonini beradi (Popovich K. et al., 2008).

Patogen stafilokokklarning keng tarqalishini, turli antibiotiklarning nazoratsiz keng qoʻllanilishini va ularga nisbatan rezistentligi oshishini xisobga olgan holda, zamonaviy tibbiy xizmat yetarli profilaktika choralarini koʻrish va ushbu turdagi patologiyalarni erta tashhis qilishga tayyor boʻlishi kerak.

Materiallar va usullar. Yuqori nafas organlari yiringli yalligʻlanish jarayoni bilan murojaat qilgan bemorlaridan mikrobiologik tadqiqot jarayonida ajratib olingan *S. aureus* ning mahalliy shtammlari biologik xususiyatlari tahlil qildik. Jami, bemorlarning ogʻiz boʻshligʻi va burun-xalqumidan 3598 mikrobiologik tekshiruv tahlili oʻtkazildi. *Staphylococcaceae* oilasiga mansub izolyatlarning hamda ular orasidan alohida tadqiqot uchun ajratib olingan *S. aureus* ning 200 shtammlari fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini (mikroskopik, hosilaviy, biokimyoviy, virulentlik omillari) batafsil oʻrganish Oʻzbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi qoʻmitasi Milliy referens laboratoriyasi, bakteriologik laboratoriyasida ilmiy adabiyotlar, xalqaro talab va usullar, Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi meʼyoriy hujjatlariga muvofiq olib borildi. Mikrobiologik tadqiqot maqsadiga muvofiq mazkur *S. aureus* izolyatlari biologik va patogenlik omillari oʻrganildi. Jumladan, Gram usulida boʻyalganda buyum oynachasi yuzasida gramm-musbat “uzum shingili” shaklidagi kokklar koʻrinishidagi morfologiyasi, katalaza, plazmakoagulaza, DNKaza fermentlari, bir qator uglevodlar fermentatsiyasi va tilla rang karotinoidli pigmentini ishlab chiqarishi, NaCl ning yuqori (6,5%, 10%) konsentratsiyasida oʻsishi kabi xususiyatlariga alohida ahamiyat berildi hamda hosilalarning gemolitik xususiyatlarini aniqlashda 5% qonli agardan foydalanildi. Virulentlik xususiyatlaridan birini belgilovchi lesitinavetilaza fermenti ishlab chiqarilishi mikrobiologik laboratoriya amaliyotida keng qoʻllanuvchi “G.N.Chistovich” muhiti yordamida stafilokokk koloniyalari atrofida shaffof boʻlmagan “bulutsimon” halqa hosil boʻlishi ijobiy natijalari boʻyicha tahlil qilindi.

Natijalar. *S. aureus* ning yuqori nafas organlari shtammlari koʻpgina biologik xossalari boʻyicha deyarli farq qilmagani holda, ammo MRSA va MSSA (metitselinga sensitiv stafilokokk aureus) variantlari orasidagi alohida oʻrganish shuni koʻrsatdiki, oksatsillinga chidamli shtammlar sezgir boʻlganlarga qaraganda sezilarli darajada ($r < 0,05$ va $r < 0,01$) kech reaksiyalar beradi yoki quyidagi belgilarga koʻra atipik tarzda namoyon boʻladi: hosila diametri 5 mm va undan ortiq boʻlgan koloniyalar, mannitolning fermentatsiyasi, saxaroza va mannozaning oksidlanishi, ishqoriy fosfataza hosil boʻlishi va asetilmetilkarbanolga reaksiyasi, pigment hosil boʻlishi, oʻsishning birinchi soatlarida plazma ivishi, in vitro usulida patogenlik omillarini namoyon boʻlishi. Patogen stafilokokklarning MRSA variantlarida MSSAga qaraganda gemoliz, fibrinolizin, lesitinaza va gialuronidaza fermentlari faolligi koʻproq aniqlanganligi metitsillin, oksatsillin variantlari nisbatan ogʻirroq klinikani yuzaga keltirishi mumkinligidan dalolat beradi.

Xulosalar. Yuqorida aytilgan fikrlarga asoslanib va ma'lum ilmiy faktlarga tayangan holda, ushbu muammoni o'rganishni O'zbekiston uchun dolzarb deb hisoblaymiz. Bunda birinchi navbatda patogen stafilokokklarning asosiy virulentlik omillarini aniqlashning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, mintaqaviy shtamlarning genetik xususiyatlarini o'rganish va zamonaviy yondoshuvlarni hisobga olgan holda diagnostika usullarini optimallashtirish zarur.

EPSHTEYN –BARR VIRUSINING ME'DA RAKI KASALLIGINI KELTIRIB CHIQISHIDAGI AHAMIYATINI O'RGANISH

Z.A.Nuruzova, N.R.Raximova
TTA Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrası

Dolzarbliigi: Onkologiya sohasida yuqumli va virusli onkogen kasalliklarning zamonaviy tashxisi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, 15% odamdagi onkologik kasalliklar virusli infeksiyalar bilan assotsiyalangan. Ular orasida DNKsaqllovchi Epshteyn-Barr virusi muhim o'rin tutadi. Epshteyn-Barr (EBV) virusi tomonidan yuqtirilgan infeksiyani o'rganish juda dolzarbdir, chunki global tarqalishiga ega: 18 yoshga kelib dunyo axolisining 90% dan ortigi EBV bilan kasallangan. Bu virus yashirin yo'l bilan tavsiflanadi va virusga qarshi davolanishga muxtoj emas. EBV – bu odamning limfotrop herpes viruslari bo'lib, bu guruhdagi boshqa viruslar odam organizmida bir vaqtda persistirlanish xususiyatiga ega hamda xo'jayin organizmidagi B-limfotsitlarga kirib, boshqarib bo'lmaydigan proliferatsiyani keltirib chiqaradi va ushbu mikroorganizm onkogen hisoblanadi.

Ishning maqsadi. Oshqozon osti patologiyasi bo'lgan bemorlarda EBV markerlari onkologik xavf guruhlarini yuzaga chiqarishda zamonaviy laborator diagnostika usullar yordamida tahlilni o'tkazish.

Material va tadqiqot usullari. Me'da sarotoni bilan og'rikan bemorlar Respublika onkologiya ilmiy markazi tassarrufidagi poliklinikasiga murojaat qilgan va ulardan 58 nafar bemorlar tanlab olindi. Ushbu bemorlardan material sifatida IFA tekshiruv uchun qon, PZR tekshiruv uchun me'da shirasi olindi. Olingan natijalar statistik usulda tahlil qilindi.

Natijalar. Umumiy bemorlardan 28 nafari (48.3%)ni ayollar, 30 nafari (51.7%)ni erkaklar tashkil qildi. Bu bemorlardan 29-55 yoshgacha 28 nafarni (48.3%), 56-80 yoshgacha 30 nafarni (51.7%) tashkil etdi.

PZR tekshiruv natijasida oshqozondan olingan me'da shirasi materialida EBV ning RNKsi va LMP-1 oqsili musbat natija 28 nafar (42.3%) bemorlarda bergan. IFA usulida qon zardobidagi antitellolar titri 2.49 XB/ml dan kam bo'lishi kuzatildi.

Xulosa. Tadqiqotlar natijasida PZR tekshiruv usuli qo'zg'atuvchini aniqlashda yuqori sezgirlik va maxsuslikka ega ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli PZR usulini Epshteyn-Barr virusining birlamchi diagnostikasida keng qo'llashga tavsiya etiladi. Me'da shirasini PZR usulida tekshirish qondagi antitelolarni IFA usulida tekshirishga nisbatan 1,5 barobarga ishonchli ekanligi aniqlandi. EBV ning aniqlanishida musbat natija kuzatilsa, virusga qarshi davo buyurilishi kasallikning remissiya davrini sezilarli darajada oshiradi. Me'da sarotoni diagnostikasida EBV ning aniqlanishi o'ta muhim ahamiyat kasb etib, ularning adekvat aniqlanishi maqbul davo usulini belgilash imkonini beradi. O'z navbatida bu holat kasallik retsidivini oldini olishga sabab bo'ladi.

SARS-COV-2 RNK NI REAL VAQT REJIMIDA ORF 1AB VA N GEN TEKSHIRISH TALQINI

Z.A.Nuruzova, S.T.Jumamurodov
Toshkent tibbiyot akademiyasi. Toshkent

Dolzarbliigi: Hozirgi kunda COVID-19 ning epidemiologiyasi, patogenezi, klinikasi, laboratoriya tashxisi borasida dunyo olimlari, yetakchi mutaxassislar va tajribali shifokorlar tomonidan izchil

o'rganishlar olib borilyapti, ammo bu borada hozirgacha o'rganishlar oxiriga yetmadi. Butun dunyo bo'ylab COVID-19 pandemiyasi paytida kasallanish va o'limni kamaytirish bo'yicha keng qamrovli yaxlit rejani to'g'ri olib borish uchun, dalillarga asoslangan davolashni amaliyotga tadbiiq qilish hozirgi vaqtda juda muhim ahamiyatga ega.

Ishning maqsadi. Shu maqsadda biz COVID-19 infeksiyasiga shubxa qilinib, nazofarengial surtma topshirgan bemor namunalarni PZR real vaqt rejimida tekshirdik.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqot Toshkent Shahar sanitariya va epidemiologiya osoyishtaligi qo'mitasi Chilonzor tumani bo'limi molekulyar genetik laboratoriyasida olib borildi. O'zbekiston Respublikasi ROSSA kompaniyasi tamonidan ishlab chiqarilgan RNK ajratib olish uchun MagSorbNA, amplifikatsiya uchun ROSSAmed COVID-19 RT-PCR reagentlar to'plamidan foydalanildi. Uning samaradorligida cheklovlar mavjud bo'lsa-da, RT-PZRning hozirda COVID-19 diagnostik vositasi sifatida boshqalaridan ustundir. U butun davlatimiz bo'ylab qo'llaniladi, chunki u virusli kasalliklar diagnostikasida sezgir, arzon va xavfsiz variant xisoblanadi. Bundan tashqari, RNKni ajratish jarayonida ishtirok etadigan reagentlarning kamligiga qaramay, issiqlik bilan ishlov berish va lizis buferlari kabi usullar keng ko'lamli, arzon va xavfsiz bo'lib qoladigan alternativalarini ta'minlaydi. Planshet tipidagi Medtl sistemada ishlaydigan Tianlong apparatidan qo'llanildi.

Natijalar. Natija real vaqt rejimida FAM va HEX kannalarda deteksiya qilindi. Amplifikator quydagicha dasturlandi:

Teskari transkripsiya uchun harorat 55⁰C 10 daqiqa – 1siki

Boshlang'ich denaturatsiya uchun 95⁰C 15 daqiqa – 1 siki

Denaturatsiya uchun 95⁰C 15 sekund,

Aniqlash (otjig) 60⁰C 30 sekund 5 siki

Elongatsiya 67⁰C 15 sekund

Denaturatsiya uchun 95⁰C 15 sekund,

Aniqlash (otjig)fam,hex 60⁰C 30 sekund

Elongatsiya 67⁰C 15 sekund

Umumiy 1(bir) soat 36 daqiqani tashkil qildi.

2023-yil 1-yanvardan 31-oktyabrgacha bo'lgan vaqtda 26817 ta nazofarengial surtma olinib molekulyar-genetik usulda tekshirildi. 25744 nafarida odam DNK chiqdi. Umumiy 10 oy davomida 278 nafarida SARS-COV-2 ORF 1AB va N genlari aniqlandi. Ulardan:122 nafar ayol, 155 nafar erkaklarni tashkil qildi. Kasallanish ko'rsatkichi 2-74 yoshgacha bo'lgan axoli qatlami kasallangan.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, olingan barcha analizlarning 96 foizi yaroqli, 4 foizi yaroqsiz xisoblanadi. Bu odam DNK si bizning tekshirish usulimizda ichki nazorat (VKO) sifatini ko'rsatadi. Shuningdek 278 nafarida musbat natija qayt qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

EXINOKOKKOZ BILAN KASALLANISH KO'RSATKICHLARINING RETROSPEKTIV EPIDEMIOLOGIK TAHLILI

Rasulov Sh.M., Toshpo'latov A.Y., Abduraxmanov B.Sh.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Termiz, O'zbekiston

Dolzarbli: Exinokokkoz kasalligi dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng tarqalgan. Olingan ma'lumotlarga asosan, hozirgi vaqtda exinokokkoz bilan 1 milliarddan ortiq kishi kasallangan, bunda ba'zi endemik va noendemik mintaqalarda ushbu xastalik bilan kasallanish 200 martadan ko'proq farq qiladi. So'nggi o'n yilliklarda exinokokkoz bilan kasallanishning o'sishi va kasallikning geografik chegarasining kengayishi kuzatildi.

Yuzaga kelgan tendensiya bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, ularga birinchi navbatda aholi ko'chishining (migratsiyasining) ortishi, sanitar-epidemiologik vaziyatning yomonlashuvini, birinchi navbatda exinokokkoz bo'yicha endemik mintaqalar, aholini dispanserizatsiya qilish muammolari, shular qatorida turli xavf guruhlarini kiritish mumkin.

Exinokokkoz kasalligi klinik belgilersiz kechishi bilan boshqa gelmintozlardan ajralib turishi sababli ushbu kasallik bilan kasallanish darajasi haqida aniq ma'lumotlar yo'q, shunga asosan exinokokkoz kasalligini erta tashxislash, konservativ davolash va oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish bugungi kunda soha xodimlari oldida turgan hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biridir.

Maqsad: Exinokokkoz bilan kasallanish ko'rsatkichlarining retrospektiv epidemiologik tahlili.

Natijalar: O'zbekiston Respublikasida 1994-2020 yillar davomida jami exinokokkoz kasalligi bilan 30678 nafar bemorlar ro'yxatga olingan bo'lib, kasallanganlarning 100 ming aholiga nisbatan intensiv ko'rsatkichi turli yillarda 1,3 - 6,01 bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqot olib borgan dastlabki yilimiz - 1994 yilda respublikamizda exinokokkoz bilan kasallanishning intensiv ko'rsatkichi - 100 ming aholiga nisbatan 3,17 tashkil qilgan va tahlil etilayotgan yillar mobaynida eng yuqori ko'rsatkich 2004 yilda kuzatilgan bo'lib, u 6,01 ga teng bo'lgan. 2007 yildan boshlab kasallanish ko'rsatkichida pasayish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsada, oxirgi yillarda bir xil ko'rsatkichlarda saqlanib turibdi. 2020 yilga kelib intensiv ko'rsatkich 1,3 ni tashkil qilgan, bu 2004 yilga nisbatan kasallanishning 4,6 martaga kamayganligini ko'rsatadi. Tahlil etilayotgan yillar mobaynida respublika miqyosida kasallanishning nomuntazam tebranishlari qayd etilmagan.

Kasallanishning ko'p yillik dinamikasini hududlar bo'yicha 12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston respublikasi miqyosida jami kasallanganlar soni va 100 ming aholiga nisbatan kasallanishning intensiv ko'rsatkichlarining o'rtachasini aniqlaganimizda kasallanish ko'rsatkichi respublikamizning barcha hududlarida har xil ko'rsatkichlarda qayd qilingan, 1994-2020 yillar davomida jami kasallanganlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida, eng past ko'rsatkichlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilgan.

Kasallanish ko'rsatkichi eng yuqori bo'lgan Farg'ona viloyatida kasallikning ko'p tarqalganlik sabablari, exinokokkozning tabiiy epizootik o'choqlari mavjudligi, exinokokk tuxumlarining nam iqlim sharoitida tuproqda o'zoq muddat saqlanishi va aholining asosiy qismi dehqonchilik ishlari orqali tuproq bilan muloqoti ko'p bo'lishi bilan bog'liq.

Qashqadaryo viloyatlarida ham exinokokkozning tabiiy faol epizootik o'choqlari mavjudligi, aholining asosiy qismi shaxsiy chorvachilik va dehqonchilik ishlari orqali hayvonlar va tuproq bilan muloqatda bo'lishi kasallikning ko'p tarqalishiga sababchi omillardan hisoblanadi, bu hududlardagi kasallanish ko'rsatkichi jami respublika ko'rsatkichidan 1,35 barobar ko'p uchragan.

Farg'ona viloyatida kasallanish ko'rsatkichi 100 ming aholiga nisbatan har xil yillarda 1,0 - 12,24 oralig'ida uchragan. 2018 yilgacha 25 yil davomida exinokokkoz bilan kasallanish ko'rsatkichi respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan va oxirgi 2 yil davomida ya'ni 2019-2020 yillarda kamaygan. 2005 yilgacha 11 yil davomida respublikamizning boshqa hududlariga nisbatan kasallanish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan.

Xorazmda boshqa viloyatlarimiz uchun juda antiqa va sanitariya-gigiena qoidalari bo'yicha yeb bo'lmaydigan deb hisoblanadigan ijjon (etjon) taomi bor. Bu xom go'shtni maxsus chinor yoki jiyda daraxtining to'nkasidan tayyorlangan g'ola (etchopar) ning ustida o'tkir pichoqda chopilib, bolta bilan eziladi va xomligicha yeyiladigan go'sht qiymasidir. Ijjon tayyorlashda

asosan yangi soʻyilgan qoʻy goʻshtidan foydalaniladi, qoʻylar esa exinokokkning asosiy oraliq xoʻjayini xisoblanib, kasallikni yuqtirish omillaridan biridir.

Buxoro viloyati ham respublikamizda exinokokkoz kasalligining tarqalganligi boʻyicha yetakchi hududlardan biri hisoblanadi. Kasallanish koʻrsatkichi 100 ming aholiga nisbatan har xil yillarda 1,67 - 12,44 oraligʻida uchragan. Tadqiqot olib borilgan barcha yillar davomida exinokokkoz bilan kasallanish koʻrsatkichi respublika koʻrsatkichidan yuqori boʻlgan.

Xulosa: Shunday qilib, respublikamizning maʼmuriy hududlarida exinokokkoz bilan kasallanishning retrospektiv epidemiologik tahlili, kasallanish koʻrsatkichi yuqori boʻlgan hududlarda exinokokkozning faol epizootik oʻchoqlari mavjudligini va respublikaning barcha hududlarida ushbu kasallik hanuzgacha uchrab turganligi, bu esa oʻz navbatida, kechiktirib boʻlmaydigan profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirish zarurligidan dalolat beradi.

COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING YUQORI NAFAS YOʻLLARIDAGI MIKROORGANIZMLAR

Safarov Sh.B.¹ Yodgorova N.T.² Hamroyev F.J.¹

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi, gigiyena va menejment” kafedrasida assistentlari

²Toshkent tibbiyot akademiyasi Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasida dotsenti, t.f.n.

Termiz, Oʻzbekiston

Dolzarbli: SARS-CoV(Severe Acute Respiratory Syndrome) –ogʻir oʻtkir nafas olish sindromini keltirib chiqaradigan virusdir. Ushbu virus COVID-19 (Coronavirus disease-19) deb nomlanadigan infeksiyon kasallikni keltirib chiqaradi. COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning yuqori nafas yoʻllarda yiringli-yalligʻlanish kasalliklarini keltirib chiqaruvchi bakterial qoʻzgʻatuvchilarning boʻlishi COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni holatini yanada ogʻirlashtiradi. Ushbu bemorlarda COVID-19 bilan tasdiqlangan holatlar va simptomlarga isitma (42%), yoʻtal (20%), tomoq ogʻrigʻi(10%), balgʻam ajralishi (14%), charchoq (16%), bosh ogʻrigʻi (10%), oshqozon-ichak bezovtaligi (2%), nafas qisilishi (8%) va mushaklar ogʻrigʻi (16%) kiradi. Yuqoridagi klinik simptomlardan COVID-19 bemorlarida yuqori nafas yoʻllari infeksiyalari aynan qaysi mikroorganizmlar sababli paydo boʻlganligini aniqlash klinik amaliyotda muhim ahamiyatga ega

Maqsad: COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning yuqori nafas yoʻllarida uchrovchi mikroorganizmlarni aniqlash

Materiallar va usullar: 2021-yil mart oylarida Respublika maxsus 1-son Zangiota shifoxonasida davolanayotgan COVID-19 infeksiyasi aniqlangan 75 nafar bemorlar tanlab olindi va ularning tomoq surtmasi Toshkent shahar Chilonzor tumani SEO va JSX Bakteriologiya laboratoriyasida bakterioskopik va bakteriologik tekshirildi.

Natijalar: Toshkent shahar Chilonzor tumani SEO va JSX Bakteriologiya laboratoriyasiga Respublika maxsus 1-son Zangiota shifoxonasida davolanayotgan COVID-19 infeksiyasi aniqlangan 75 nafar bemorlar tomoq surtmasi bakterioskopik va bakteriologik tekshirilganda quyidagi natijalar aniqlandi. 75 nafar bemorlarning 32 nafari monoinfeksiya va 43 nafari poliinfeksiyalar aniqlandi. Eng koʻp foizni *S.aureus* (26%) va zamburugʻlar (29%) tashkil qildi. Patogen mikroorganizmlardan *Klebsiella pneumonia* 13%, *Candida sp* 29 %, *S.aureus* 26%, *Streptococcus spp.* 10%, *Pseudomonas aerogenosa* 3%, *St.spp.* 12%, *Streptococcus.pyogenes* 5% aniqlandi

Xulosalar: Olingan maʼlumotlarga asosan COVID-19 bemorlarida antibiotiklarni koʻp va betartib foydalanilganligi uchun zamburugʻlar 29% ni tashkil etdi. COVID-19 aniqlangan bemorlarni immun sistemasi susayganligi tufayli bakterial infeksiyalarga beriluvchan boʻlib qoladi, shu

sababli *S.aureus* 26% tashkil etdi. 31 yoshdan 80 yoshlar orasida yuqori nafas yo'llarida ikkilamchi bakterial qo'zg'atuvchilar 77,1% uchrashi aniqlandi. Yuqorida aniqlangan patogen mikroorganizmlar COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni holatini yanada og'irlashtiradi.

COVID-19 BEMORLARIDA NOZOFARENGIAL SURTMADA ORF1 AB VA N GEN VA ODAM GENOM DNK NI REAL-VAQT REJIMIDA TEKSHIRISH TALQINI

Saidmurodova G.I.

Toshkent tibbiyot akademiyasi. Toshkent

Dolzarbli: Hozirgi kunda COVID-19 ning epidemiologiyasi, patogenezini, klinikasi, laboratoriya tashxisi borasida dunyo olimlari, yetakchi mutaxassislar va tajribali shifokorlar tomonidan izchil o'rganishlar olib borilyapti, ammo bu borada hozirgacha o'rganishlar to'xtagani yo'q. Butun dunyo bo'ylab COVID-19 pandemiyasi paytida kasallanish va o'limni kamaytirish bo'yicha keng qamrovli yaxlit rejani to'g'ri olib borish uchun, dalillarga asoslangan davolashni amaliyotga tadbiiq qilish hozirgi vaqtda juda muhim ahamiyatga ega.

Maqsad: COVID-19 infeksiyasiga shubxa qilinib, nazofarengial surtma topshirgan bemor namunalarni PZR real vaqt rejimida tekshirish.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqot Toshkent Shahar sanitariya va epidemiologiya osoyishtaligi qo'mitasi Chilonzor tumani bo'limi molekulyar genetik laboratoriyasida olib borildi. O'zbekiston Respublikasi ROSSA kompaniyasi tamonidan ishlab chiqarilgan RNK ni ajratib olish uchun MagSorbNA, amplifikatsiya uchun ROSSAmed COVID-19 RT-PCR reagentlar to'plamidan foydalanildi. Uning samaradorligida cheklovlar mavjud bo'lsa-da, RT-PZRning afzalliklari hozirda COVID-19 diagnostikasi vositasi sifatida kamchiliklardan ustundir. U butun davlatimiz bo'ylab qo'llaniladi, chunki u virusli diagnostika uchun sezgir, arzon va xavfsiz variantni bizga taqdim etadi. Bundan tashqari, RNKni izolyatsiyalash jarayonida ishtirok etadigan reagentlarning kamligiga qaramay, issiqlik bilan ishlov berish va lizis buferlari kabi usullar keng ko'lamli, arzon va xavfsiz bo'lib qoladigan alternatalarni ta'minlaydi. Planshet tipidagi Medtl sistemada ishlaydigan Tianlong apparatidan qo'llanildi.

Natijalar: Natija real vaqt rejimida FAM va HEX kannalarda deteksiya qilindi. Amplifikator quydagicha dasturlandi:

Teskari transkripsiya uchun harorat 55⁰C 10 daqiqa – 1siki

Boshlang'ich denaturatsiya uchun 95⁰C 15 daqiqa – 1 siki

Denaturatsiya uchun 95⁰C 15 sekund,

Aniqlash (otjig) 60⁰C 30 sekund 5 siki

Elongatsiya 67⁰C 15 sekund

Denaturatsiya uchun 95⁰C 15 sekund,

Aniqlash (otjig)fam,hex 60⁰C 30 sekund 35 siki

Elongatsiya 67⁰C 15 sekund

Umumiy 1(bir) soat 36 daqiqani tashkil qildi.

Xulosalar: 2023-yil oktyabr oyida 18 ta nazofarengial surtma olinib molekulyar-genetik usulda tekshirildi. 2 nafar musbat natija aniqlandi. Ulardan: 2 nafar ayollar tashkil qildi. Kasallanish ko'rsatkichi 2, 74 yoshgacha bo'lgan axoli qatlami kasallangan.

ПРИМЕНЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКОЙ ТЕРАПИИ ПСОРИАЗА ПРИ COVID-19

ИНФЕКЦИИ

Ташкенбаева У.А., Алиев А.Ш., Усманиев С.А.Алиев Ш.Р.

Ташкентская медицинская академияНа сегодняшний день точно неизвестно, влияет ли псориаз и препараты для его лечения на риски передачи коронавирусной инфекции или течение COVID-19. Тяжелая форма заболевания обусловлена такими факторами, как более

старший возраст, сопутствующие заболевания сердца, легких, почек и метаболические заболевания, такие, как диабет и ожирение. Пациенты с псориазом более склонны к развитию этих заболеваний. При заражении COVID-19 инфекцией по возможности следует избегать длительного применения системных стероидных препаратов для лечения псориатического артрита. В случае необходимости дозу следует снижать до минимальной, которая необходима для достижения терапевтического эффекта. Длительное применение системных стероидных препаратов в момент острой коронавирусной инфекции может быть связано с худшими исходами COVID-19. Важно отметить, что стероиды могут и улучшать исходы COVID-19, когда назначаются госпитализированным пациентам с потребностью в оксигенотерапии.

Согласно рекомендациям NPF (National Psoriasis Foundation) по лечению COVID-19 приведены в соответствие с рекомендациями Центров по контролю и профилактике заболеваний США (CDC). Пациенты с псориазом и коронавирусной инфекцией должны получать терапию препаратами с доказанной пользой при COVID-19. Лечение госпитализированных пациентов должно включать консультации с ревматологами, дерматологами и/или инфекционистами в случае необходимости.

Так амбулаторным пациентам с высоким риском тяжелой формы COVID-19 и/или госпитализации рекомендованы: сотровимаб и коктейль из касиривимаб с имдевимабом. Уже госпитализированным пациентам с тяжелым течением COVID-19 рекомендовано назначение препаратов дексаметазон, ремдесивир, барицитиниб в комбинации с ремдесивиром и тоцилизумаб в комбинации с дексаметазоном.

Системные ГКС не противопоказаны для лечения COVID-19 и не должны исключаться из опасения перед обострением псориаза после их отмены. Однако назначение системных ГКС при COVID-19 инфекции при наличии тяжелого активного течения псориаза может усугубить течение последнего в дальнейшем. Следовательно, на сегодняшний день появляется необходимость в поисках альтернативных схем лечения псориаза учитывая тяжесть течения новой COVID-19 инфекции.

KANDIDA INFEKTSIYASINING ETIOLOGIYASI VA ANTIMIKOTIK DORILARGA SEZGIRLIK KO'RSATG'ICHI.

Fayzullaeva Z.R. Mirvaliyeva N.R.

TTA .O'zbekiston

Maqsad: Ushbu tadqiqot kandidoz infeksiyasini tavsiflash, ushbu infeksiyaning rivojlanishiga moyil bo'lgan omillarni aniqlash, shuningdek ekilgan shtammlarning zamonaviy antimikotik dorilarga sezgirlikni o'rganish.

Materiallar va usullar: Urogenital kandidozli 36 bemor tekshirildi. An'anaviy klinik va mikologik usullar yordamida tashxis qo'yildi. Tekshiruvdan o'tgan ayollar orasida 26 (84,4%), erkaklar 10 (15,6%) bor. Yosh taqsimoti: 18-21 yosh - 2,1% (n=2), 22-30 yosh - 49,0% (n=12), 31-40 yosh - 36,4% (n=15), 41-50 yosh - 8,3% (n=5) va 50-60 yosh - 4,2% (n=2). Shtammlarni aniqlash an'naviy mikologik usullar yordamida amalga oshirildi, ajratib olingan shtammlarning sezgirlikni aniqlash uchun disk diffuziya usuli qo'llanildi.

Natijalar: Kandidoz - bu *Candida (Candida spp)* turigaga o'xshash zamburug'lari keltirib chiqaradigan infeksiya. Ular tananing turli xil biotoplarining normal mikroflorasining bir qismidir, shuningdek, tananing ayrim qismlarining infeksiyasini keltirib chiqaradi. *Candida* infeksiyasi kasal odamdan sog'lom odamga o'tmaydi, ammo bu infeksiyaning paydo bo'lishi jiddiy tibbiy va iqtisodiy oqibatlariga olib keladi. *Candida* avlodi 80 dan ortiq turga ega va turli xil *Candida* shtammlarining patogenlik darajasi zararsizdan yuqori virulentgacha o'zgarib turadi.

Odamlar uchun faqat *C. albicans*, *C. tropicalis*, *C. pseudotropicalis*, *C. krusei*, *C. panacrusei* va *C. guillermonti* patogen hisoblanadi.

Bu ularning inson biotoplaridagi darajasining sifat va miqdoriy jihatdan pasayishiga va mikologik diagnostikada "noto'g'ri" natijalarga olib keladi. Tirik va jonsiz tabiatning (odatda shakarga boy meva va sabzavotlar) substratlarida atrof-muhitdagi saprofitlardan tashqari, ular ko'pincha odamlarning teri va shilliq pardalari yuzasidan ajratiladi: sog'lom tashuvchilarda 5% ga etadi va shilliq qavatining yallig'lanish jarayonlari bo'lgan shaxslar 53,2%. *Candida* zamburug'lari terida 5-20%, tirnoqlarda 50%, og'iz bo'shlig'ida 16-37%, burun bo'shlig'ida 1%, balg'amda 70%, o'n ikki barmoqli ichak tarkibida 10-65% aniqlangan, ichaklarda 15-20%, quloq kanallarida 10-65%, peshobda 78% gacha tekshirilganlar.

Antibiotiklar davrida *Candida spp* tomonidan kelib chiqqan patologik sharoitlar sezilarli darajada oshdi. Kandidoz immunitet tanqisligi holatlarida va boshqalarda opportunistik infeksiya sifatida klinikada keng qo'llaniladigan tashxisga aylandi. Ichak va vaginal disbiyoz tobora kengayib bormoqda, bunda *Candida spp* etakchi agent sifatida ham, boshqa patogenlar bilan assotsiatsiya shaklida ham muhim rol o'ynaydi.

Kandidozning rivojlanishiga moyil bo'lgan asosiy omillar: qandli diabet, tananing umumiy charchashi, immunosupressantlarni qo'llash, siydik chiqarish uchun doimiy kateterlar, kortikosteroid gormonlarini qo'llash, normal mikrofloraning tarkibini o'zgartiradigan antimikrobiyal preparatlar va boshqalar. Ko'p miqdorda dori-darmonlarni tomir ichiga yuborish. Bu omillarga ekologik jihatdan noqulay omillar, birinchi navbatda, tananing immunitet tizimining faolligini kamaytirish va inson tanasining turli biotoplarining normal mikroflorasi tarkibini buzish kiradi.

Candida zamburug'larining virulentligi turli omillar ta'sirida pasayadi, u laboratoriya hayvonlari orqali, ma'lum kimyoviy moddalar qo'shilgan holda inson a'zolaridan olingan ekstraktlar bilan o'tish paytida ortishi mumkin. Kandidoz infeksiyasining patogenezida hal qiluvchi o'rinni zamburug'larning patogen omillari emas, balki makroorganizmning holati ham egallaydi.

Candida avlodi zamburug'larining antimikotik dorilarga sezgirliги bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ularning eng yuqori sezuvchanligi nitroksolin, levorin, siteal, gentian binafsha va amfoterisin B (6,3%), ketokanazol (6,3%), nistatin (9,4%). Metilin ko'k (18,8%), klotrimazol (37,5%), flukonazol (43,8%) uchun o'rtacha sezuvchanlik qayd etilgan.

Xulosa: Etiologik agentlari *Candida spp* bo'lgan *Candida* infeksiyasi, asosan, ikkilamchi immunitet tanqisligi bo'lgan odamlarda rivojlanadi va sog'liqni saqlash amaliyotida qo'llaniladigan antifungal dorilarga turli xil sezgirlikni ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, ushbu dorilarni faqat mikologik usullar bilan ularga nisbatan sezgirlikni aniqlagandan keyin buyurish taklif etiladi.

VIRUSLI GEPATIT A KASALLIGINING TARQALGANLIGI VA PROFILAKTIKASI

Chutboyev B.R., Soatova N.A., Rasulov Sh.M.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Termiz, O'zbekiston

Virusli hepatit A butun dunyoda eng keng tarqalgan, uchrash ko'lamiga ko'ra o'tkir respirator virusli infeksiyalar va o'tkir ichak yuqumli kasalliklaridan keyin uchinchi o'rinda turadi. VGA boshqa jigar kasalliklari orasida yetakchi o'rinni egallaydi va barcha virusli hepatitlarning 65-75 foizini tashkil qiladi. VGA kasalligining tarqalishi Afrika va Janubiy Osiyoda eng yuqori ko'rsatkichlarda bo'lib, u 100 ming aholiga nisbatan 500-600 kishini tashkil etadi. Rossiyada

oxirgi yillarda VGA ning tarqalishi sezilarli darajada kamaydi va har 100 ming aholiga 60-80 kishini tashkil etadi.

Virusli gepatit A kasalligi barcha kasallanganlarda o'tkir shakllanmaydi, shuning uchun ro'yxatga olinganlar soni bu barcha kasallanganlarni sonini bildirmaydi. Virusli gepatit A kasalligida "Aysberg sindromi" kuzatiladi. Bunda kasallanganlarning 10-20 foizida kasallik belgilari yuzaga chiqadi, qolganlarida klinik belgilar yuzaga chiqmaydi yoki shamollash va boshqa belgilar bilan kechadi.

O'zbekistonda virusli gepatit A kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi bugungi kunda ham baland bo'lib, bu ko'rsatkich har 100 ming aholiga 2010 yilda – 100 dan ko'proq, ammo kasallanish ko'rsatkichi 1990-yillarga nisbatan 3,7 barobar kamaygan.

Tadqiqotning maqsadi: Virusli gepatit A kasalligining tarqalganligini o'rganish va uning profilaktikasini takomillashtirish.

O'zbekiston hududida tarqalgan va ro'yxatga olingan virusli gepatitlarning beshta turlari ichida asosan virusli gepatit A turiga to'g'ri keladi. Biz 2012-2022 yillar davomida Respublikamizda ro'yxatga olingan virusli gepatitlar va virusli gepatit A, B turlarini tahlil qilganimizda asosan gepatit A eng ko'p tarqalganligini aniqlandi. Ya'ni kasallanish ko'rsatkichlari bir yil ko'tarilib, ikkinchi yil pasaygan masalan: 2012 yil 100,6 ga teng bo'lgan, 2013 yil 138,0 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2014 yil 122,3 ga teng bo'lgan, 2016 yil 120,8 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yil 98,3 ga teng bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2008-2018 yillarda jami virusli gepatitlar bilan 372066 nafar bemorlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 97,9 % gepatit A, 1,4 % gepatit V, 0,4 % gepatit S, 0,1 % gepatit D va 0,2 % gepatit Ye egallagan.

O'zbekiston Respublikasi viloyat va shaharlari bo'yicha gepatit A tahlilida kasallanish ko'rsatkichi Namangan, Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida eng yuqori, Toshkent, Farg'ona, Andijon viloyatlarida esa kasallanish ko'rsatkichi Respublika ko'rsatkichidan bir oz yuqori bo'lgan. Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida va Qaraqalpog'iston Respublikasida nisbatan kam kasallanish ko'rsatkichlari qayd etilgan.

Gepatit A kasalligi bilan kasallanish avgust oyidan boshlanib, oktabr, noyabr, dekabr oylari eng ko'p uchragan bo'lib, asosan kuzgi-qishgi mavsumiylikka ega bo'ldi. Jins bo'yicha tahlilda kasallanganlarning 58% o'g'il bolalar, 42 % qiz bolalar tashkil etdi.

Virusli gepatit A kasalligida epidemiyaga qarshi kurash chora – tadbirlari ko'pincha kechikib qilinadi, bemor organizmidagi viruslarni atrof – muhitga ajratib bo'lgandan keyin chora – tadbirlar o'tkaziladi. Shuning uchun ham hatto sariqlik shakldagi bemorlar aniqlanganidan keyin, ularni alohidalab (izolyatsiya) qo'yish deyarli samara bermaydi. Bundan ko'ra bemor bilan muloqotda bo'lganlarni klinik, laboratoriya (bioximik ko'rsatkichlari) usullarida kasallikning dastlabki davrlarida faol aniqlab, ularga nisbatn qilinadigan choralar ko'proq samara beradi. Ushbu kasallikda asosiy yuqtirish omili suv bo'lganligi tufayli chora – tadbirlar ichida aholining suv ta'minotiga e'tibor qaratilishi katta ahamiyatga ega, epidemik avj olishlarda, eng avvalo, aholining sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash kerak. Uyushgan bolalar jamoalarida kasallik paydo bo'lganda, bolalarga virus maishiy – muloqot yo'li bilan yuqmasligi uchun sanitariya – gigiena choralari, bolalarning qo'lini ovqatdan oldin, hojatdan keyin toza yuvish, o'yinchoqlarni, xonani, idish – tovoqlarni, oshxona anjomlarini dezinfeksiya qilish uchun zamonaviy dezinfeksiya vositalarini ishlatish lozim.

Virusli gepatit A kasalligining asosiy samarali profilaktikasi aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashdir. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ushbu kasallikning o'tkir va surunkali epidemik avj olishlari aholini kafolatlangan, sifatli suv bilan ta'minlash natijasida amalga oshgan.

Hozirgi davrda virusli gepatit A kasalligiga qarshi o'lik vaksinalar mavjud. Ushbu vaksina juda ko'p xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan va samarali vaksina ekanligi epidemiologik tajribalarda isbotlangan, amaliyotda qo'llanilayapti. O'zbekistonda ham ushbu vaksinalar epidemiologik ko'rsatmalarga binoan profilaktika maqsadida ishlatilmoqda. Ammo bu vaksinalar bilan emlash, milliy emlash kalendariga hozircha kiritilgani yo'q.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki virusli gepatitlar etiologiyasida asosiy o'rinni gepatit A tashkil qiladi, keyingi o'rinda gepatit B. Umuman olganda deyarli barcha kasalliklarning davolanishga ketgan sarf xarajatdan ko'ra uni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ancha iqtisodiy samara beradi. Gepatit A kasalligini ham davolashdan ko'ra uning oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

OZIQ-OVQATLARNI MIKROBIOLOGIK TEKSHIRISHDA BAKTERIOLOGIK ANALIZATORDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Shamuratov A.Sh.

Toshkent tibbiyot akademiyasi. Toshkent

Tadqiqot maqsadi. Oziq-ovqatlarni mikrobiologik tekshirishda bakteriologik analizatordan foydalanganda tahlil natijalarining tez va ishonchliligini isbotlash.

Tadqiqot dolzarbligi. Hozirgi vaqtda dunyo aholisini boqish asosiy muammolardan biri hisoblanadi va oziq-ovqatlar bilan aholini ta'minlash import va eksport mahsulotlar orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kunda oziq-ovqat mahsulotlariga tez va sifatli xulosalar berish asosiy muammlardan biridir.

Materiallar va usullar. O'zbekiston Respublikasi Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi milliy referens laboratoriyasining bakteriologiya laboratoriyasida xulosa olish uchun kelgan namunalardan 100 tasi bir vaqtning o'zida mos ravishda tegishli tahlilardan o'tkazildi. Tahlil uchun Salmonella, ITBG, S.aureus tahlillari tanlab olindi. 50 ta namuna laboratoriya sharoitida Salmonella, E.Coli va S.aureus bakteriyalari bilan bakterial iflaslantirildi. 100 ta namuna shu uchta ko'rsatkich uchun bir vaqtda klassik va analizatordan foydalangan xolda tekshirildi. Analizator sifatida VITEK-MS apparatidan foydalanildi.

Natijalar. Tadqiqotlarimiz uchun 100 ta oziq ovqat namunasi tanlab olindi. Tahlillar natijalari shuni ko'rsatdiki, 50 ta namuna klassik usulda va analizator yordamida tekshirilganda Salmonella, ITBG va S.aureusga manfiy natija berdi. Bakterial ifloslantirilgan 50 ta namunada klassik usulda tekshirilganda va analizatorda tekshirilganda bir xil musbat natijalar olindi. Faqat farqi shuki, bakteriologik analizatordan foydalanganimizda natijalar klassik usuldagidan ko'ra 1-2 kun vaqtli natijalar olindi. Qayta ekishlar natijasi 90% ni tashkil qildi.

Xulosalar. Bakteriologik analizatordan foydalanilganda (VITEK-MS) tahlillar natijasi agar musbat natijali maxsulotlar bo'ladigan bo'lsa, ITBG va S.aureus ko'rsatkichiga 1 kun vaqtli, Salmonella ko'rsatkichiga 2 kun vaqtli natijalar olindi. Analizatordan foydalangan vaqtimizda biokimyoviy tahlillarga sinama qo'yish shart bo'lmaganligi sababli qo'shimcha ravishda ozuqa-muhitlar tayyorlash va reaktivlardan foydalanishning oldi olindi va kam ishchi kuchi sarflanganligini ko'rishimiz mumki.

GRIPP KASALLIGIDA EPIDEMIOLOGIK JARAYONNING RIVOJLANISHI VA PROFILAKTIKASI

Xaitova Sh.I., Muxidinova G.A., Usmanov Sh.N.
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali
Termiz, O'zbekiston

Gripp - bu insoniyat kasallanishida yetakchi o'rinni egallovchi nozofoma kasallik hisoblanadi. Nisbatan epidemik muvaffaqiyatli yillarda gripp umumiy kasallanishning 20%ini, epidemik notinch yillarda (gripp epidemiyalar, pandemiyalar) - 40%ni tashkil etadi.

Maqsad: O'zbekistonda gripp kasalligini epidemiologik xususiyatlarini o'rganish va ushbu ma'lumotlar asosida profilaktik choralar ishlab chiqish.

Grippni 2 turdagi viruslar qo'zg'atadi, A va V turi, bundan tashqari S virusi ham grippni qo'zg'atishi mumkin. Gripp virusi tashqi muxit omillariga chidamsiz.

Kasallanish davrida odam yordamga muhtoj bo'lib, umumiy holsizlik, yuqori harorat va qattiq bosh og'rishlaridan shikoyat qiladi. Gripping og'ir kechishi yurak qon-tomir sistemasi, nafas organlari, markaziy nerv sistemalarida qaytarib bo'lmas shikastlanishlar natijasida yurak va qon tomir kasalliklari, o'tkir zotiljam, traxeobronxitlar, meningo-ensifalitlar kabi kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Gripping yengil, o'rtacha, og'ir gipertoksik formalari mavjud. Yengil formasida: tana harorati normal yoki 38^0 S gacha ko'tarilishi, infeksiyon toksikozning (kuchli terlash, holsizlik, mushak va bo'g'imlarda og'riq, bosh og'rig'i kabi) belgilari kuzatiladi.

O'rta og'ir formasida: tana harorati $38,5-39^0$ S gacha ko'tarilib, infeksiyon toksikozning belgilari kuchli namoyon bo'ladi. Gripp kasalligida aksariyat hollarda kataral belgilar ko'proq kuzatiladi. Gripp kasalligida tomoq va traxeyaning shikastlanishi oqibatida respirator belgilardan og'riqli quruq yo'tal, to'sh suyagi ortida og'riq, xalqum va burun shilliq qavatlarining quruqshashi va bitib qolishi hamda qizarishi kuzatiladi. Ba'zi hollarda abdominal sindrom belgilari: qorinda og'riq, axlatning suyuq kelishi ya'ni «me'da grippi» kuzatiladi.

Og'ir formasida: tana harorati $40-40,5^0$ S gacha ko'tarilishi, infeksiyon toksikozning (kuchli terlash, holsizlik, mushak va bo'g'imlarda og'riq, bosh og'rig'i kabi) kuchli belgilari bilan bir qatorda tutqanoqlar, alahsirashlar, burundan qon ketish hamda qusish kuzatilishi mumkin.

Gripp epidemik jarayoni rivojlanishida kasallik manbai kasallikning og'ir va yengil turi bilan og'irgan bemor hisoblanadi.

Zararlangandan so'ng qisqa inkubatsion davr (kasallikning yashirin davri, 3 kungacha) kechadi. Yashirin davr tugagandan so'ng kataral o'zgarishlar rivojlanishi bilan nafas yo'llari orqali qo'zg'atuvchini tashqi muxitga ajralishi kuzatiladi. Yo'tal, aksa urish, gaplashish orqali nafas yo'llarining gripp virusi bilan to'yingan, nekrozga uchragan epitelial xujayralari havo aerozollariga qo'shiladi.

Virusologik va epidemiologik ma'lumotlarga ko'ra bemor kasallikning birinchi belgilari namoyon bo'lishi bilan tashqaridagilar uchun xavfli xisoblanadi va 3-5 kun davomida bu xavfliylik saqlanadi. 90% bemorlar shu davrga kelib epidemik ahamiyatini yo'qotadi. 10% bemorlargina virusni tashqariga chiqarishni davom ettiradi va bu xolat 6 xaftagacha davom etishi mumkin.

Barcha epidemiologik tajribalar shuni ko'rsatadiki, asosiy xavf bemorlarning dastlabki kasallangan kunidan boshlanar ekan.

Kasallikning yaqqol infeksiyon jarayon bilan kechayotgan turi bilan bir qatorda, kasallikning belgilersiz yengil formalari ham manba sifatida katta ahamiyatga ega. Ular o'zlarini ancha yengil his qilganlari uchun aktiv hayot tarzini davom ettiradilar va kasallikni tarqatadilar. Bu guruh kishilar epidemiya tarqalishida katta xavf tug'diradilar.

Shunday qilib, A grippi epidemik jarayoni rivojlanishida kasallik manbai bo'lib kasallikning og'ir, yengil va belgilersiz formasidagi bemorlar xisoblanadi. Bunday bemorlar 3-5 kun davomida zararli bo'lsada, qo'zg'atuvchi ajralib chiqishi intensiv ravishda amalga oshadi va kasallik juda tez rivojlanadi.

Xulosa: Gripp kasalligini epidemiologik rivojlanishini oldini olish uchun vaksinalardan foydalanish, niqob (maska) paxta va marlidan qilingan, (4 qavatli) taqish, vitamin «S» va polivitaminlarni iste'mol qilish kerak.

GRAM-POSITIVE OR GRAM-NEGATIVE MICROFLORA IN DIABETIC FOOT SYNDROME.

Z.N.Ergasheva, Z.A.Nuruzova
Tashkent, TMA

Relevance. As the number of people suffering from diabetes increases, the incidence of complications such as diabetic foot syndrome also increases. Patients diagnosed with diabetes have a 25% lifetime risk of developing foot infections. According to statistics, people with type 2 diabetes have a 30-40 times higher need for lower limb amputations compared to those who do not suffer from diabetes.

Purpose of the study. To study the characteristics of microflora in wounds of patients with diabetes mellitus and determine their sensitivity to antibiotics in order to carry out selective decontamination.

Materials and methods of research. Bacteriological analysis of purulent discharge from a wound was carried out in 32 patients who were hospitalized in the purulent-septic surgery department of the TMA multidisciplinary clinic in 2020. Using traditional methods, microorganisms causing infection in the wound were identified, as well as their sensitivity to modern antibiotics was determined.

Results and discussion. 90.6% of patients (n=29) showed growth of microorganisms. In 37.5% of cases, they were isolated in pure culture, while in 62.5% of cases an association of two microorganisms was detected. Bacteria isolated because of bacteriological analysis of purulent discharge from patients revealed a sufficient diversity of microbial composition. Both gram-positive and gram-negative microorganisms represent bacteriological studies of the microflora of wounds in patients hospitalized in the purulent-septic surgery department. When studying wound discharge from patients with diabetic foot syndrome, the microflora was dominated by the proportion of gram-negative microorganisms, which accounted for 62.1%, including the share of non-fermentative gram-negative bacteria accounting for 27.6% of cases, with *P aeruginosa* (20.7%) and *Acinetobacter spp.* (6.9%). Representatives of the family *Enterobacteriaceae* were dominated by *Klebsiella spp.* (20.7%), *E. coli* and *Enterobacter spp.* (6.9% each).

Gram-positive microorganisms, found in 37.9% of cases, are mainly represented by *St. aureus* (31.0%), as well as *Enterococcus spp.* (6.9%). Yeast-like fungi of the genus *Candida* are often found in association and were isolated in 55.2% of cases. Among the associates, there are representatives of the family *Enterobacteriaceae*, *St. aureus* and non-fermenting gram-negative bacteria.

Thus, the causative agents of infections in purulent wounds in patients with diabetes mellitus are mixed infections, with gram-negative microorganisms such as enterobacteriaceae occupying a leading position (62.1%). In second place is *St. aureus* (31.0%), as well as fungi of the genus *Candida*. number of *St. aureus* in combination with other microorganisms accounted for a significant proportion - 28.1%. These results correspond to microbiological studies of biopsy specimens from patients with diabetic foot syndrome abroad, where the proportion of *S. aureus* ranged from 15% to 50%. In the structure of gram-negative bacteria, the leading position is occupied by *Klebsiella spp.* in association with fungi of the genus *Candida*.